

KOGNETIV TILSHUNOSLIKDA "JINOYAT" KONSEPTI

G'ulomova Bibi Muxlisa Maxmudjon qizi

Andijon davlat chet tillari institute Ingliz filologiyasi, o'qitish metodikasi
va tarjimashunoslik fakulteti talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada kognetiv tilshunoslik haqida umumiy tushunchalar haqida so`z yuritilgan bo`lib, undagi "Jinoyat" konsepti ko`rib chiqilgan.

Kalit so`zlar: *tilning aspektlari, kognitiv tilshunoslik, dunyoviy axborot strukturalari, til birliklari, lingvokulturologiya, bilim psixologiyasi, leksikologiya, leksikografiya, frazeologiya, madaniyatshunoslik.*

Kirish

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunoslik kesishgan nuqtada shakllangan til tadqiqining yangi sohasidir. Lingvokulturologiya madaniyat va tilning o'zaro aloqasini, o'zaro ta'sirini, tilda o'z aksini topgan xalq madaniyatining ko'rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, tashuvchisi sifatida o'rganadi. Mazkur fan doirasida leksik darajaning til birliklari semantikasidagi madaniyatshunoslikning tarkibiy qismlari va madaniy ma'nolar o'rganiladi. Lingvokulturologiya fanini o'zlashtirish uchun magistrant tilshunoslikning leksikologiya, leksikografiya, frazeologiya va madaniyatshunoslik kabi bo'limlarining tushunchaviy tizimi, so'zning semantik tuzilishi, leksik birliklarning turlari haqida tasavvurga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, magistrantning xorijiy tillardan birini egallagan va bu tilning muayyan leksik boyligiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qism

Kognitiv tilshunoslik bu tilning aqliy xodisa sifatida o'rganish uchun bir-biriga chambarchas yondashuvlarning klasteri hissoblanadi. 70-yillarda kognitiv lingvistika tilshunoslik maktabi sifatida paydo bo'lgan.

Keyingi yillarda til va madaniyatning o'zaro bog'Miqligi haqida gumanitar yo'nalishda tadqiqot olib borayotgan olimlar ko'p yozishmoqda. Bu tabiiy jarayon, chunki madaniyat inson va jamiyatning eng muhim ko'rsatgichi, belgisi bo'sha, til esa inson va jamiyat hayotida muloqot vositasi sifatida eng zarur va muhim o'rin egallaydi. Agar til madaniyatning bir qismini tashkil qilsa, madaniyat esa tilda zohir boladi.

Tilning ko'plab aspektlarini tushunish uning ijtimoiy-antropologik tabiatini o'rganish bilan bog'Miq. XIX asrning birinchi yarmida V.Gumboldt tomonidan zamonaliv antropologik tilshunoslikka asos solindi. U bir necha bor, til - bu shunday

organki, inson u yordamida o‘z fikrini ifodalaydi (Die Sprache ist das bildene Organ des Gedanken) deb ta’kidlagan. Bundan tashqari, nemis olimi ko‘p marta til millat ruhini ifodalaydi va shakllantiradi, olam haqidagi milliy tasavvumi ko‘rsatadi hamda turli tillarning mavjudligi, turli xalqlarda tafakkur obrazining xilmaxilligi asosida boMishini aytadi. V.Gumboldt tillarni qiyoslashga alohida e’tibor qaratishga chaqiradi, zero uning fikricha, “ularning farqi - bu nafaqat tovush va belgilarda, balki dunyoqarashda hamdir. Bunda, barcha til tadqiqotlarining yakuniy maqsadi va mazmuni yotadi”(Gumboldt, 1985).

“Kognitiv tilshunoslik - bu bilimni bilish, axborotni dunyoviy axborot strukturalarining dunyo bilan bo’lgan o’zaro munosabatlarimizdagi hal qiluvchi rolini anglatadigan tilni o’rganishdir ... Kognitiv tilshunoslik ... bizning dunyomiz bilan aloqalarimiz axborot strukturalari orqali amalga oshirilishini nazarda tutadi” balki bu bilimlarni tashkil qilish, qayta ishslash va yetkazish vositasi sifatida tabiiy tilga e’tibor berish orqali bilim psixologiyasidan ko’ra ko’proq o’ziga xosdir.

Kognitiv tilshunoslikda tadqiqot olib boradigan markaziy taxminlardan biri shuki, til ishlatish kontseptual tuzilishni aks ettiradi va shuning uchun tilni o’rganish bizni til asosidagi aqliy tuzilmalar haqida xabardor qilishi mumkin. turli xil tilshunoslik so’zlari bilan qanday ruhiy tasavvurlar qurilganligini aniqlang (masalan, Fauconnier 1994, 1997; Lakoff & Johnson 1980, Langacker 1987) metodlarga asoslangan nazariy bahslar orqali o’tkazildi bu usullar taxminiy, ziddiyat, qarama-qarshi fikrlar va metafora kabi turli xil mavzularni o’rganish uchun ishlatilgan (masalan, Fauconnier 1994).

“Afsuski, ichki dunyoqarash orqali o’zlarining aqliy tuzilmalarini kuzatish uning aniqligi bilan cheklangan bo’lishi mumkin (masalan, Nisbett va Wilson 1977), natijada tergovchilar nazariy talablarni eksperimental usullardan foydalanib o’rganish muhimligini anglab yetdilar.

Jinoyat tushunchasi jinoyat huquqi fanining predmetini tashkil etuvchi xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Jinoyat huquqida boshqa huquq tarmoqlari uchun baza hisoblangan “jinoyat” tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Uning asosiy vazifasi shaxs va jamiyat o’rtasida yuzaga keladigan nizolarning ijtimoiy xavfli ekanligi va ularning jinoyat huquqiy tartibga solinishi kerakligini belgilashdan iboratdir.

1791-yilda “Jinoyat” tushunchasiga jinoyat-huquqiy ta’rif birinchi bor qabul qilingan Fransiya Jinoyat kodeksida berilgan bo‘lib, ushbu ta’rif formal tusga ega edi. Unda jinoyatga: “Jinoyat bu – amaldagi jinoyat qonuni bilan jazolanadigan qilmishdir”, -deya ta’rif berilgan edi.

Jinoyat bu – ijtimoiy va huquqiy hodisa hisoblanadi.

Jinoyat — jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish. Muayyan qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasi har bir davlatda o‘zining ijtimoiy tuzumi, aholining turmush tarzi, milliy xususiyatlari, urf-odatlari, an’analariga muvofiq xalqaro huquq me’yorlari e’tiborga olingan holda hal etiladi.

Qilmish jinoyat ekanligini aniqlash uchun quyidagi umumiy belgilar nazarga olinadi:

- qilmishning ijtimoiy xavfliligi;
- aybning mavjudligi;
- jazoga sazovorligi.

Har qanday jinoiy qilmishda mazkur belgilarning barchasi birdaniga mavjud bo‘lishi shart, ulardan biri mavjud bo‘lmasa, qilmishni jinoyat emas, deb hisoblashga asos topiladi.

Jinoyatlar o‘z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra:

- ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan;
- uncha og‘ir bo‘lmagan;
- og‘ir;
- o‘ta og‘ir jinoyatlarga bo‘linadi.

Jinoyatlar tajovuz ob’yektiga ko‘ra, shaxsga qarshi jinoyat, iqtisodiyot sohasidagi jinoyat, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyat, davlat hokimiyatiga qarshi jinoyat, ekoliya sohasidagi jinoyat, harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyat, tinchlik va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatga bo‘linadi.

Aybning shakliga ko‘ra esa qasddan sodir etilgan jinoyat va ehtiyyotsizlik orqasida sodir etilgan jinoyatga bo‘linadi.

Shaxs o‘z harakati yoki harakatsizligini va bundan kelib chiqadigan jinoiy oqibatni anglagan, o‘z harakatlarini boshqara oladigan bo‘lsagina qilmishi jinoyat hisoblanadi. Sub’yekt yoshiga yetmagan va aqli noraso shaxslar tomonidan sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmish jinoyat sanalmaydi va ularga nisbatan jinoyat qonunida nazarda tutilgan majburlov choralarini qo‘llash mumkin emas.

ISSN (E): 2181-4570

Foydalilaniladigan adabiyotlar:

1. Alefirenko N.F. Lingvokulturologiya. Sennostno-smislovoe prostranstvo yazika. Uchebnoe posobie. –M.: Flinta, Nauka, 2010.
4. Arutyunova N.D. Metafora i diskurs // Teoriya metafori. –M., 1990.
5. Arutyunova N.D. Yazik i mir cheloveka. –M., 1998.
6. Bayburin A. K. Ritual v traditsionnoy kulture. –SPb., 1993.
7. Bijeva Z.X. Kulturnie konsepti v kabardinskoy yazike. –Nalchik, 1997.
8. VejbitskayaA. Yazik. Kultura. Poznanie. –M., 1996.
9. Vorkachyov S.G. Lingvokulturologiya, yazikovaya lichnost, konsept: stanovlenie antropotsentricheskoy paradigm v yazikoznanii // Filologicheskie nauk. 2001. -№ 1. –S. 64-72.
10. Vorobev V. V. Kulturologicheskaya paradigma russkogo yazika. –M., 1994.
11. Vorobev V.V. Lingvokulturologiya: teoriya i metodi. –M., 1997.
12. Gumboldt V. O razlichii stroeniya chelovecheskix yazikov i ego vliyanii na duxovnoe razvitiye chelovechestva// Izbr. trudi po yazikoznaniyu. –M., 1984.
13. Gumboldt V. Yazik i filosofiya kulturi. –M., 1985.
14. Gurevich A.Ya. Chelovek i kultura: Individualnost v istorii kulturi. –M., 1990.